

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 154 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	



QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Iqtisodiyot va turizm” kafedrasi assistenti

ORCID: 0009-0004-0176-2872

Annotatsiya. Maqolada qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash masalasining dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati hamda metodologik asoslari yoritilgan. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha mavjud usullar tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashning takomillashtirilgan usullari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq joylari, mehnat resurslari, samaradorlik, baholash usullari, ish kuchi, ish bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi, daromad.

Abstract. The article explores the relevance, scientific and practical significance, and methodological foundations of assessing the efficiency of labor resource utilization in rural areas. Existing methods for evaluating the efficiency of labor resource utilization are analyzed, and their strengths and weaknesses are identified. Based on the research findings, improved methods for assessing the effectiveness of labor resource utilization in rural areas are proposed.

Keywords: rural areas, labor resources, efficiency, assessment methods, labor force, employment, labor productivity, income.

Аннотация. В статье раскрываются актуальность, научно-практическая значимость и методологические основы оценки эффективности использования трудовых ресурсов в сельской местности. Проведён анализ существующих методов оценки эффективности использования трудовых ресурсов, выявлены их преимущества и недостатки. На основе результатов исследования предложены усовершенствованные методы оценки эффективности использования трудовых ресурсов в сельской местности.

Ключевые слова: сельская местность, трудовые ресурсы, эффективность, методы оценки, рабочая сила, занятость, производительность труда, доход.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohalarini sifat jihatdan rivojlantirish sharoitida aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish, bo'sh hamda kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "...bu yil 5 million 200 ming aholi bandligini ta'minlab, 1,5 million kishini kambag'allikdan chiqarish, 14 milliard dollarlik 8 mingta loyihani amalga oshirib, 272 mingta doimiy ish o'rni yaratish" [1] kabi vazifalar belgilangan.

Bu borada mintaqalarning qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mamlakatimizda ko'pgina davlatlarni tashvishga solayotgan ishchi kuchining qarishi, aholi sonining kamayishi kabi muammolar mavjud emas. Aksincha, demografik jihatdan iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat resurslari taklifi barqaror o'sib bormoqda. Bu esa makrodarajada mamlakatimizda inson kapitali mehnat salohiyatining yanada samarali realizatsiya qilinishiga xizmat qilmoqda. Respublika mehnat resurslarini shakllantirishda aholining tabiiy harakati, yosh va jins tarkibi muhim rol o'ynaydi, ayrim hududlar uchun esa



aholining mexanik harakati, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar ham mehnat resurslaridan foydalanishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat resurslari tushunchasi va qishloq joylaridagi xususiyatlariga oid qarashlar, asosan, inson kapitali, mehnat bozorining dinamikasi, qishloq iqtisodiyotining rivojlanishi hamda demografik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ushbu yondashuvlarda mehnat resurslari nafaqat ishchi kuchi, balki iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qaraladi. Qishloq joylarida esa aholi migratsiyasi, yoshlar ulushining kamayishi, agrar sektorning yangi texnologiyalarga bog'liqligi hamda ko'p funktsiyali qishloq rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining samaradorligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda xorijiy olimlarning quyidagi nazariy qarashlarini uchratish mumkin.

Gary Becker (1964) tomonidan ilgari surilgan inson kapitali nazariyasida mehnat resurslari shunchaki jismoniy kuch emas, balki ta'lim, ko'nikma va tajriba majmui sifatida talqin etiladi. Qishloq joylarida ushbu "inson kapitali" qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, qishloqdan shaharga migratsiya jarayonlari ushbu kapitalning yo'qotilishiga olib kelishi ta'kidlanadi [2].

Arthur Lewis (1954) tomonidan ishlab chiqilgan ikki sektorli modelda qishloq (an'anaviy) va shahar (zamonaviy) iqtisodiyotlari o'rtasidagi mehnat migratsiyasi tahlil qilinadi. Muallif qishloqdan ortiqcha ishchi kuchining shaharlarga oqimini urbanizatsiyaning asosiy omili sifatida baholaydi, shu bilan birga qishloq mehnat resurslarining qolgan sektorlar uchun oziq-ovqat va xomashyo yetkazib beruvchi manba ekanligini alohida qayd etadi [3].

Theodore Schultz (1964)ning qishloq taraqqiyoti nazariyasida qishloq aholisining salomatligi, ta'lim darajasi va kasbiy ko'nikmalari investitsiya sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda qishloq mehnat resurslari faqat ishlab chiqaruvchi kuch emas, balki innovatsiyalarni qabul qiluvchi va joriy etuvchi subyekt ekanligi asoslab beriladi [4].

Mamlakatimizda aholi bandligi, qishloq aholisi mehnat resurslaridan foydalanish hamda barqaror ish o'rinlarini yaratish masalalari bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Q.X. Abdurahmonov, A. Islomov, Sh. Xolmo'minov, K.Z. Xomitov, H.P. Abulqosimov, M.X. Ashurova, J.K. Sauxanov, B.B. Seilbekov, A.I. Isamuhamedov, U.Sh. Ballasov, S.F. Ergashev, O.S. To'rayev, R.X. Pulatova, R.X. Ergashev, O. Murtazayev, F.B. Axrorov kabi olimlarning ilmiy ishlarida aholi bandligi va mehnat resurslari iqtisodiyotiga oid muhim ilmiy xulosalar bayon etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Statistik usul. Ushbu usulda mehnat resurslari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar (aholi soni, ish bilan ta'minlanganlik darajasi, ishsizlik darajasi, mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi va boshqalar) tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.
2. Sotsiologik usul. Ushbu usulda qishloq aholisi o'rtasida so'rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar o'tkaziladi. Olingan natijalar asosida aholining mehnat faoliyati, ish bilan ta'minlanganlik darajasi, mehnat sharoitlari, daromadlar darajasi va boshqa muhim jihatlar bo'yicha ma'lumotlar jamlanadi.
3. Ekspert baholash usuli. Ushbu usulda qishloq joylarida mehnat resurslari bilan bog'liq mutaxassislar (iqtisodchilar, sotsiologlar, demograflar, qishloq xo'jaligi mutaxassislari va boshqalar) jalb etiladi. Ekspertlar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash hamda uni oshirish yo'llari yuzasidan o'z fikr va tavsiyalarini bildiradilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ko'pgina davlatlarni qiynayotgan ishchi kuchining qarishi, aholi sonining kamayishi kabi muammolar mavjud emas. Aksincha, demografik jihatdan iqtisodiy kategoriya sifatida, ya'ni mehnat resurslari taklifi barqaror o'sib bormoqda. Bu esa makrodarajada mamlakatimizda inson kapitali mehnat salohiyatining realizatsiyasi oshib borayotganligini ko'rsatadi. Respublika mehnat resurslarini shakllantirishda aholining tabiiy harakati, yosh va jins tarkibi muhim rol o'ynaydi, ayrim hududlar uchun esa aholining mexanik harakati, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar ham mehnat resurslaridan foydalanishga ma'lum darajada yordam beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi oshib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi (mln so'm/kishi)¹

1-rasm ma'lumotlari ko'rsatishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi 2010-yildagi 1,32 mln so'm/kishi qiymatdan 2023-yilda 16,55 mln so'm/kishi qiymatga qadar oshgan.

Yalpi hududiy mahsulot va uning aholi jon boshiga oshishida qishloq joylari aholisining asosiy faoliyat turi hisoblangan qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar qiymatining ta'siri shubhasizdir. Shu sababli mehnat resurslarining katta qismi band bo'lgan qishloq xo'jaligida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish holati o'rganildi.

Ushbu ma'lumotlar tahlili asosida qishloq joylarida yalpi hududiy mahsulotga ta'sir etuvchi aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari misolida 2010–2023-yillar oralig'ida o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish qiymatining o'zgarishi (mln so'm/kishi)²

№	Hududlar	Yillar														O'zgarishi	
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, marta
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,22	1,52	2,12	2,40	2,93	3,74	4,33	5,20	7,01	8,62	10,08	11,73	13,42	15,21	13,99	12,5
1.	Amudaryo	1,12	1,34	1,81	2,25	2,78	3,67	4,52	5,81	8,78	10,29	12,23	14,33	16,06	18,78	17,67	16,8
2.	Beruniy	1,33	1,71	2,16	2,49	3,01	3,64	4,17	5,28	7,36	8,99	10,75	12,21	13,38	15,88	14,55	11,9
3.	Bo'zatov											10,01	11,83	13,48	17,47		
4.	Qorao'zak	1,40	1,43	2,06	2,05	2,51	3,66	4,36	5,35	6,90	8,75	9,76	11,52	13,27	13,54	12,14	9,7
5.	Kegeyli	1,15	1,50	2,01	2,26	2,71	3,43	4,08	5,04	6,66	7,99	8,86	9,75	11,05	12,30	11,15	10,7
6.	Qo'ng'iro't	0,89	1,14	2,25	2,49	2,98	4,24	4,95	6,01	6,94	8,99	10,67	12,50	14,30	16,21	15,32	18,2
7.	Qonliqo'l	1,44	1,50	2,60	2,37	2,73	3,77	4,17	4,74	6,03	8,12	9,78	12,56	18,30	21,43	19,98	14,9
8.	Mo'ynoq	0,42	0,50	0,79	1,01	1,33	1,75	2,29	2,80	3,81	5,11	6,42	6,80	7,85	8,01	7,59	19,3
9.	Nukus t.	1,93	2,59	3,83	3,91	5,92	7,41	8,39	5,91	6,46	8,44	8,79	8,43	10,48	11,42	9,49	5,9
10.	Taxiatosh									7,03	9,16	11,35	13,63	15,35	16,80		
11.	Taxtakopir	2,01	2,14	3,15	3,30	3,96	5,22	6,15	7,86	9,91	12,50	14,10	16,59	19,58	23,82	21,81	11,9
12.	To'rtko'l	1,09	1,46	1,89	2,21	2,60	3,24	3,64	4,50	5,82	7,04	8,20	9,63	10,66	11,57	10,48	10,6
13.	Xo'jayli	1,09	1,63	2,15	2,93	3,43	2,97	3,40	4,09	8,25	9,83	10,73	12,80	16,16	16,41	15,32	15,1
14.	Chimboy	1,35	1,51	2,52	2,73	3,17	4,44	4,95	6,51	8,19	10,26	12,77	14,94	16,48	18,79	17,45	14,0
15.	Shumanay	1,05	1,12	1,76	2,03	2,36	2,96	3,37	4,47	6,27	7,67	8,97	11,09	13,04	16,07	15,02	15,2
16.	Ellikqal'a	1,09	1,44	1,81	2,06	2,46	2,93	3,31	3,84	5,44	6,83	7,96	9,33	10,27	11,26	10,17	10,4

1 Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2 Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish qiymatining o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikada mazkur ko'rsatkich 2010-yilda o'rtacha 1,22 mln so'm/kishi qiymatni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 15,21 mln so'm/kishi qiymatga yetgan. Boshqacha aytganda, ushbu ko'rsatkich o'rganilgan davrda miqdoriy jihatdan 13,99 mln so'm/kishiga, nisbiy jihatdan esa 12,5 baravarga oshgan.

2010-yilda mazkur ko'rsatkichning eng yuqori qiymati Taxtako'pir tumanida kuzatilib, 2,01 mln so'm/kishini, eng past qiymati esa Mo'ynoq tumanida 0,42 mln so'm/kishini tashkil etgan. Bu holat 2010-yilda Taxtako'pir tumanida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot qiymati Mo'ynoq tumaniga nisbatan 1,5 baravar yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

2023-yilda ham mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasi yana Taxtako'pir tumanida qayd etilib, 23,82 mln so'm/kishini, eng past darajasi esa Mo'ynoq tumanida 8,01 mln so'm/kishini tashkil etgan. Ushbu yilda ham Taxtako'pir tumani ko'rsatkichining aholi jon boshiga YaHM qiymatidan 1,5 baravar yuqori ekanligi aniqlangan. Shuningdek, 2023-yil natijalari aholi jon boshiga YaHM qiymatidan qishloq xo'jaligida aholi jon boshiga yetishtirilgan mahsulot ko'rsatkichlari Amudaryo, Bo'zatov, Qonliko'l, Taxiotosh va Chimboy tumanlarida ham yuqori bo'lganligini ko'rsatmoqda. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasida yalpi hududiy mahsulotning shakllanishida, xususan, aholi jon boshiga ko'rsatkichlar darajasida qishloq xo'jaligining o'zni yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar natijalari kelgusida mehnat resurslaridan foydalanishda faqat qishloq xo'jaligiga tayanib qolmasdan, boshqa intensiv tarmoqlarni ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq joylarini rivojlantirishda qisqa va o'rta muddatli istiqbolda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- ish haqi subsidiyalari va shogirdlik tizimi kabi amaldagi siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarni baholash, isloh qilish hamda kengaytirish;
- yoshlar ehtiyojlari va ilg'or xalqaro tajriba asosida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi ko'nikmalarni rivojlantirish va boshlang'ich kapital bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish;
- maktablar va kasb-ta'lim markazlarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- talab yuqori bo'lgan ko'nikmalar va kasblarni yanada samarali diagnostika qilish, shuningdek, ta'lim va mehnat bozori to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalar hamda yosh ish izlovchilar uchun ochiq va qulay shaklda taqdim etish;
- yoshga mos kasbga yo'naltirish mexanizmlarini institutsionalizatsiya qilish;
- yosh ayollarning bandlik va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash jarayonlarida faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida bolalarga g'amxo'rlik qilish xizmatlarini yaxshilash hamda yanada moslashuvchan mehnat qoidalarini joriy etish;
- sektorlar va hududlar bo'yicha kasbiy hamda mehnat harakatchanligidagi to'siqlarni bartaraf etish uchun tartibga soluvchi islohotlarni ilgari surish;
- uyushgan (xavfsiz va samarali) mehnat migratsiyasiga ko'maklashish;
- davlat bandlik xizmatlari va dasturlari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish.

Yangi ish imkoniyatlarini yaratish maqsadida maktablar hamda kasb-hunar ta'limi markazlarida raqamli ko'nikmalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talab juda yuqori bo'lib, bu holat barcha ishchi kuchi oldiga yangi va murakkab talablarni qo'ymoqda. Kuchli raqamli ko'nikmalar yoshlarning ish bilan ta'minlanishiga, shuningdek, kichik firmalar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, raqamli ko'nikmalar elektron tijorat platformalari orqali raqamli tadbirkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga imkon yaratadi, shuningdek, harakatchanligi cheklangan yoki ijtimoiy me'yorlar sababli an'anaviy mehnat faoliyatini olib borish imkoniga ega bo'lmagan yosh ayollar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun uy sharoitida ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ko'nikmalar dasturini kengaytirish usullaridan biri sifatida maktablar, ta'lim muassasalari, kasb-hunar ta'limi markazlari va kollejlarda axborot texnologiyalari bilan bog'liq ta'lim jarayonini muntazam yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, pandemiya davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, gibrid ta'lim modellari (an'anaviy va masofaviy ta'limni uyg'unlashtirgan holda) hamda masofaviy ta'lim shakllari talabalar va ish izlovchilarning raqamli ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 3-fevral kuni aholi bandligini ta'minlash va investitsiyalarni jalb qilish masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish bayonoti. <https://president.uz/uz/lists/view/7849>
2. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd edition.
3. Lewis, W. A. "Economic Development with Unlimited Supplies of Labour". The Manchester School, 1954.



4. Schultz, T. W. Transforming Traditional Agriculture. New Haven: Yale University Press, 1964.
5. OECD. Innovation, Agricultural Productivity and Sustainability. OECD Publishing, 2015.
6. Netafim Ltd. Smart Irrigation Systems Research Papers, 2019–2024.
7. Kalmuratov, B. S., Salieva, A. D. The role of the organizational-economic mechanism in the development of innovation processes in agriculture // Science and Education in Karakalpakstan. ISSN 2181–9203, № 1/1 (38), 2024, 85–89-b.
8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100